O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI

FAN-SPORTGA

ILMIY-NAZARIY JURNAL

2026/3



ISSN: 2181 7804

FAN Sportga
ilmiy-nazariy jurnali

Texnik tahririyat tarkibi:

N.N. G‘afforov
U.O. Azimova
M.S. Ayxodjaeva
M. Rahmonov

fan-sportga.uz

**“FAN – SPORTGA”
ilmiy-nazariy jurnali**

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti muassisligida chop etiladi

Tahririyat manzili:
111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi 19-uy.

Mazkur ilmiy jurnal elektron formatda nashr qilinadi

05.02.2018 yilda Toshkent shahrida ommaviy axborot vositasi sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Ro‘yxatga olish raqami № 02-005 “FAN – SPORTGA” jurnali 2004 yildan nashr etiladi.

Suratlar muallifi:
Anvar Ilyasov
Abdullo Fayzullayev

2026/3

A.A. Utepov – Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida shug‘ullanuvchi karatechilarning kumite (erkin jang) dasturi bo‘yicha qo‘l zarbalari texnik harakatlarini rivojlantirish uslubiyati. 69

С.А. Петрянин – К развитию процесса тактической подготовки дзюдоистов юниоров на этапе совершенствования спортивного мастерства. 74

A.P. Boyqobilov – 200 m masofa yuguruvchi malakali yengil atletika talabalarining maxsus jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari va ularni shakllantirish. 77

**ADAPTIV JISMONIY TARBIYA
ADAPTIVE PHYSICAL EDUCATION
АДАПТИВНАЯ ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА**

D.O. Maxamatova – Jismoniy imkoniyati cheklangan o‘spirin yoshidagi sportchilarda emotsional intellektning namoyon bo‘lishi. 81

D.B. Baxtiyorov – Yuqori malakali amputant futbolchilarda musobaqa oldi mashg‘ulotlarini rejalashtirish. 85

**JISMONIY TARBIYA VA SPORTNING TIBBIY-BIOLOGIK VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI
MEDICAL-BIOLOGICAL AND SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORT
МЕДИКО-БИОЛОГИЧЕСКИЕ И СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА**

A.N.Shopulatov – Yoshlarda jismoniy tarbiya va sportga nisbatan qadriyatli yondashuvni shakllantirish yo‘llari. 88

N.M. Muxitdinova – Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida harakat faoliyatlarini o‘rgatishda vizual metodlardan foydalanishning nazariy tahlili. 92

N.F. Saloxiddinov – Ichki ishlar vazirligi akademik litsey o‘quvchilarining jismoniy tayyorgarlik darajasini shakllanishi. 95

O.M. Jiyanov – Sport mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazishda ilmiy yondoshuvlarning ahamiyati hamda samaradorligi. 99

N.A. Chorshamiyev – Umumta’lim maktablarida sport to‘garaklari orqali o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishini ta’minlash hamda sportga yo‘naltirilgan jismoniy tarbiya mazmunini optimallashtirish. 104

U.I. Sultonov – O‘quv-mashg‘ulot guruhidagi uzoq masofaga yuguruvchilarning musobaqa oldi mezosikllarini rejalashtirish uslubiyati. 107

D.S. Nurullayeva – Sportchilar va murabbiylar faoliyatini rivojlantirishda qonunchilik yangiliklarining nazariy-huquqiy asoslari va amaliy samaradorligi. 110

F.Ch. Ziyayev – Bosqon uloqtiruvchilarning ko‘p yillik tayyorgarlik jarayonida murabbiy va sportchi o‘rtasidagi pedagogik muloqotning o‘rni. 113

J.A. Alimov – Malakali gandbolchi-qizlarning maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish uslubiyati. 116

M.Sh. Ismailova., J.N. Asatillaev., Sh.T. Xaydarov – Malakali sportchilarda yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarining jismoniy yuklamadan keyingi tiklanish dinamikasini o‘rganish. 122

Dotsent
D.S. NURULLAYEVA[1]
[1]O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Chirchiq shahri, O‘zbekiston

https://orcid.org/0009-0002-1940-4366

https://doi.org/10.65149/fansport.2026.v9i3.a030

SPORTCHILAR VA MURABBIYLAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA QONUNCHILIK YANGILIKLARINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI VA AMALIY SAMARADORLIGI

Annotatsiya

В данной статье проводится научно-правовой анализ новой редакции Закона Республики Узбекистан «О физической культуре и спорте». Исследование направлено на раскрытие основных нормативно-правовых механизмов закона, ориентированных на популяризацию физической культуры, повышение качества спортивного образования, развитие спортивной инфраструктуры, а также поддержку спортсменов, тренеров и спортивных агентов. В статье анализируются концептуальные новшества новой редакции закона, включая институт основных понятий, закрепление спортивного образования и педагогической деятельности как самостоятельного правового института, нормативное регулирование формирования сборных команд и процессов селекции, а также вопросы международного сотрудничества и антидопинговых механизмов. На основе этого формулируются научно обоснованные выводы и практические рекомендации, направленные на совершенствование управления в сфере спорта, правового регулирования, уточнение полномочий субъектов спортивной деятельности и обеспечение профессионального и институционального развития отрасли.

Ключевые слова: *физическая культура, спортивное право, нормативно-правовое регулирование, спортивная политика, управление спортом, спортивная инфраструктура, спортивное образование, массовый спорт, параспорт, антидопинговая политика*

Abstract

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni ilmiy-huquqiy tahlil qilinadi. Tadqiqot qonunning jismoniy tarbiyani ommalashtirish, sport ta’limi sifatini oshirish, sport infratuzilmasini rivojlantirish, shuningdek, sportchilar, murabbiylar va sport agentlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan asosiy normativ-huquqiy mexanizmlarini yoritishga yo‘naltirilgan. Maqolada qonunning yangi tahrirdagi kontseptual yangiliklari, xususan asosiy tushunchalar instituti, sport ta’limi va pedagogik faoliyatning alohida huquqiy institut sifatida mustahkamlanishi, terma jamoalar va seleksiya jarayonlarining normativ tartibga solinishi, shuningdek xalqaro hamkorlik va antidoping mexanizmlari tahlil qilinadi. Shu orqali maqolada sport boshqaruvi va huquqiy tartibga solishni takomillashtirish, sport subyektlarining vakolatlarini aniqlashtirish hamda sohaning professional va institutsional rivojlanishiga hissa qo‘shadigan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: *jismoniy tarbiya, sport huquqi, normativ-huquqiy tartibga solish, sport siyosati, sport boshqaruvi, sport infratuzilmasi, sport ta’limi, ommaviy sport, para sport, antidoping siyosati.*

This article provides a scientific and legal analysis of the new edition of the Law of the Republic of Uzbekistan “On Physical Culture and Sport.” The study is aimed at elucidating the key normative-legal mechanisms of the law, which are focused on promoting physical education, enhancing the quality of sports education, developing sports infrastructure, and supporting athletes, coaches, and sports agents. The article examines the conceptual innovations of the new edition, including the institute of basic concepts, the establishment of sports education and pedagogical activity as an independent legal institution, the normative regulation of national teams and selection processes, as well as international cooperation and anti-doping mechanisms. Based on this analysis, scientifically grounded conclusions and practical recommendations are presented to improve sports governance, legal regulation, clarify the powers of sports entities, and ensure the professional and institutional development of the field.

Keywords: *physical education, sports law, normative-legal regulation, sports policy, sports governance, sports infrastructure, sports education, mass sport, para sport, anti-doping policy.*

Kirish. Jismoniy tarbiya va sport sohasining rivojlanishi nafaqat sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, balki milliy salomatlik, ijtimoiy barqarorlik va sport infratuzilmasini takomillashtirish nuqtai nazaridan ham dolzarb masala hisoblanadi. Shu munosabat bilan, sohani tartibga soluvchi qonunchilik bazasini doimiy ravishda takomillashtirish va amaliyotda yuzaga keladigan huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etish zaruriyati oshib bormoqda. Qonunlar orqali jismoniy tarbiya va sport sohasidagi munosabatlarni tizimli tashkil etish, sport subyektlari faoliyatini normativ asosda tartibga solish hamda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini mustahkamlashning o‘rni beqiyosdir.

Yaqinda Senat yalpi majlisida ko‘rib chiqilgan yangi tahrirdagi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonun bilan sohada davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari, shuningdek, sport vazirligi, Milliy olimpiya va paralimpiya qo‘mitalari kabi asosiy subyektlarning vakolatlari aniq belgilab berildi. Qonun jismoniy tarbiya va sport federatsiyalari, klublari va ligalarining huquqiy maqomi, ularni reyestrga kiritish va chiqarish tartibi, murabbiylar, sport hakamlari va sport agentlarining huquq va majburiyatlari kabi masalalarni tartibga soladi. Shu bilan birga, sportda dopingning oldini olish, musobaqa natijalariga noqonuniy ta‘sir ko‘rsatishga qarshi kurashish va aholini ommaviy sportga jalb qilish bo‘yicha yangi mexanizmlarni belgilab beradi[1].

Mazkur Qonunning qabul qilinishi nafaqat sohada amaliyotda mavjud bo‘lgan noaniqliklar va huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etishga, balki vazirliklar, idoralar va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining vazifalarini aniq belgilash orqali jismoniy tarbiya va sportni tizimli rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu tariqa, yangi Qonun sport infratuzilmasini mustahkamlash, sportchilarning va murabbiylarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda jismoniy tarbiya va sportni davlat tomonidan barqaror qo‘llab-quvvatlash tizimini shakllantirishda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi yangi tahrirdagi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonunning normativ-huquqiy, institutsional va amaliy jihatlarini kompleks tahlil qilish hamda uning sohada davlat siyosatini amalga oshirishdagi strategik ahamiyatini aniqlashdan iborat. Shuningdek, Qonunning normativ mexanizmlari, jumladan sport federatsiyalari, klublar va ligalarning huquqiy maqomi, murabbiylar, hakamlar

va sport agentlarining vakolat hamda majburiyatlarini tartibga soluvchi institutlar ilmiy asosda o‘rganiladi.

Shuningdek, tadqiqotning vazifalaridan biri sport faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy mexanizmlarning samaradorligini baholash, doping va sport natijalariga noqonuniy ta’sir ko‘rsatishga qarshi kurash-ish tizimlarini, shuningdek, aholini ommaviy sportga jalb qilish bo‘yicha davlat siyosatining mexanizmlarini tahlil qilishdir. Bu orqali Qonunning ijtimoiy-huquqiy funksiyasi, ya’ni sport subyektlari faoliyatini normativ tartibga solish, sport infratuzilmasini mustahkamlash va sportchilarning huquq hamda manfaatlarini himoya qilishdagi rolini ilmiy jihatdan baholash imkoniyati yaratiladi.

Bundan tashqari, tadqiqotning maqsadi mavjud qonunchilikdagi huquqiy bo‘shliqlarni aniqlash va ularni amaliyotga tatbiq etishda yuzaga keladigan muammolarni tahlil qilish orqali jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga davlat tomonidan ko‘rsatiladigan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini samarali shakllantirishga hissa qo‘shishdir. Shu yo‘nalishda, tadqiqot Qonunning institutsional mexanizmlari, normativ bazasi va ijtimoiy-huquqiy ta’siri nuqtai nazaridan ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqishni ko‘zda tutadi.

Tashkil qilish usullari: jismoniy tarbiya va sport sohasida munosabatlarni samarali tartibga solish uchun tashkil etish usullari institutsional va normativ mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Yangi tahrirdagi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonunda sport subyektlarini – sport federatsiyalari, klublar, ligalar, terma jamoalar, murabbiylar va sport agentlarini – tashkil etish, ularning vakolatlari va faoliyat tartibi aniq normativ asosda belgilangan[2]. Shu bilan birga, qonun sport ta’limi muassasalarini va pedagogik faoliyatni alohida huquqiy institut sifatida mustahkamlash orqali professional kadrlar tayyorlash va ularning faoliyatini tartibga solish mexanizmlarini taklif qiladi.

Sport infratuzilmasini tashkil etish jarayoni davlat va jamoat subyektlari hamkorligiga tayangan holda amalga oshiriladi, bunda moliyalashtirish, resurslarni taqsimlash, sport ob’yektlarini reyestrga kiritish va ulardan foydalanish tartibi qonun bilan normativ asosda belgilangan. Shuningdek, terma jamoalarni shakllantirish va seleksiya jarayonlarini tizimli tashkil etish mexanizmi ham qonunda alohida modda sifatida mustahkamlangan, bu esa sportning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

Bundan tashqari, xalqaro sport hamkorligi, ommaviy sport tadbirlarini tashkil etish, doping va musobaqa natijalariga noqonuniy ta’sirga qarshi kurashish kabi yo‘nalishlar ham normativ tartibga solinib, ularning tashkil etilishi orqali sport tizimi institutsional jihatdan mukammallashadi. Shu yo‘l bilan, yangi tahrirdagi qonun jismoniy tarbiya va sportni tizimli, professional va barqaror rivojlantiriladigan institut sifatida tashkil etishning ilmiy asoslangan mexanizmlarini yaratadi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi: o‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasi Senati tomonidan ma’qullangan yangi tahrirdagi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonun mamlakatda jismoniy tarbiya va sport sohasini tizimli ravishda rivojlantirish, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish hamda sport ta’limi sifatini oshirishga qaratilgan kompleks huquqiy hujjat sifatida namoyon bo‘ladi. Qonunning asosiy yo‘nalishlari jismoniy tarbiyani ommalashtirish, sport infratuzilmasini rivojlantirish, ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya sifati va samaradorligini oshirish, professional va havaskor sportchilar hamda trenerlarni ijtimoiy himoya qilish kabi muhim vazifalarni qamrab oladi.

Tadqiqot jarayonida qonun normalarining amaliyotga tatbiq etilishi holatini tahlil qilish maqsadida Navoiy viloyati misolida o‘rganildi. Tahlil natijalari mazkur qonun ijrosi doirasida hududlarda muayyan ijobiy ko‘rsatkichlarga erishilganini ko‘rsatdi. Jumladan, sport ta’lim muassasalarida olimpiya sport turlari bilan qariyb 12 ming nafar, paralimpiya sport turlari bilan 225 nafar, milliy sport turlari bilan qariyb 2 ming nafar hamda noolimpiya sport turlari bilan 2 680 nafar, jami 17 ming nafarga yaqin sportchilar shug‘ullanayotgani aniqlandi. Ushbu ko‘rsatkichlardan 4 363 nafarini qizlar tashkil etishi gender tengligini ta’minlash borasida ijobiy tendensiya shakllanayotganini ko‘rsatadi[3].

Sport sohasini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash masalasi ham tadqiqot natijalarida muhim ahamiyat kasb etdi. Xususan, 2023 yilda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish uchun mahalliy budjetdan 2 mlrd 840 mln so‘m, respublika budjetidan esa 1 mlrd 876 mln so‘m mablag‘ ajratilgan. Milliy sport turlarini rivojlantirish uchun esa ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari kalendar rejasi asosida 570 mln so‘m mablag‘ yo‘naltirilgan. Bu holat davlat tomonidan sport sohasiga investitsiyalar izchil ravishda ortib borayotganini tasdiqlaydi.

Jismoniy tarbiyani aholi orasida ommalashtirish borasida mahallalarda amalga oshirilayotgan ishlar ham tadqiqot natijalarining muhim qismi hisoblanadi. “Har bir islohot mahalladan boshlanishi kerak” tamoyili asosida 35 ta mahallada 39 ta sport maydonchalari qurilib foydalanishga topshirilgan. Shu bilan birga, sport maktablariga 39 turdagi 2,6 mlrd so‘mlik 2 252 ta sport jihozlari yetkazib berilgan. 2023 yil davomida 5 127 ta ommaviy sport tadbirlari tashkil etilgan bo‘lib, ularda 378 129 nafar aholi ishtirok etgan. Ularning 126 344 nafarini ayollar tashkil etishi jamiyatda sport madaniyati kengayib borayotganini ko‘rsatadi. Shuningdek, ishtirokchilarning qariyb 200 ming nafarini yoshlar tashkil etishi qonunning yoshlar siyosati bilan uzviy bog‘liqligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari para sportni rivojlantirish

borasida ham ijobiy siljishlar mavjudligini ko‘rsatdi. Viloyatda nogironligi bo‘lgan 4 584 nafar shaxs o‘rtasida sportga qiziqish bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijasida 1 283 nafar shaxs sport bilan shug‘ullanish istagini bildirgan. Natijada para sport bo‘yicha 6 ta seksiya tashkil etilib, ularga 225 nafar yosh jalb etilgan hamda ular bilan 28 nafar trener mashg‘ulot olib borayotgani ijtimoiy inklyuzivlik tamoyillari amaliyotda qo‘llanilayotganini ko‘rsatadi[4].

Shu bilan birga, tadqiqot davomida qonun ijrosi jarayonida muayyan muammolar mavjudligi ham aniqlandi. Jumladan, Sog‘liqni saqlash vazirligiga aholining jismoniy rivojlanish holatini tahlil qilish va sog‘lomlashtirish dasturlarini ishlab chiqish vakolati berilgan bo‘lsa-da, mazkur vazifalar to‘liq amalga oshirilmagan. Shuningdek, davlat organlarida “sport targ‘ibotchisi” lavozimini joriy etish bo‘yicha Prezident farmoni talablari aksariyat tashkilotlarda moliyaviy resurslar yetishmasligi sababli bajarilmayotgani kuzatildi.

Qonun talablariga muvofiq mahalliy hokimliklar tomonidan hududiy dasturlar ishlab chiqilishi lozim bo‘lsa-da, ayrim hududlarda bunday dasturlar qabul qilinmagan. Sport maktablaridagi faoliyat samaradorligi, trenerlar faoliyatini ilmiy asosda tahlil qilish tizimi yetarli darajada shakllanmagan. Para sport bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarning yetishmasligi ham sohadagi muhim muammolardan biri sifatida qayd etildi.

Infratuzilma bilan bog‘liq muammolar ham tadqiqot natijalarida muhim o‘rin egalladi. Masalan, viloyatdagi 374 ta umumta’lim maktabidan 100 tasida sport zallari mavjud emasligi, ayrim professional ta’lim muassasalarida sport jihozlari yetishmasligi hamda sport zallarining avariya holatida ekani jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shuningdek, sport musobaqalariga qatnashish bilan bog‘liq xizmat safari xarajatlarini oldindan moliyalashtirish tizimining mavjud emasligi natijasida 2024 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra 3,3 mlrd so‘m qarzdorlik yuzaga kelgani aniqlandi.

Qonun loyihasida sport sohasini yanada takomillashtirishga qaratilgan yangi huquqiy normalar ham belgilangan. Xususan, sport turlarini tan olish va ularning reestrini yuritish tartibini takomillashtirish, sport musobaqalari natijalariga noqonuniy ta’sir ko‘rsatish va korrupsiyaga qarshi kurashish choralarini kuchaytirish nazarda tutilgan. Shuningdek, Milliy Olimpiya va Paralimpiya qo‘mitalarining huquqiy maqomi, surdlimpiya, maxsus olimpiada va ko‘zi ojizlar sporti harakatlarini huquqiy jihatdan tartibga solish, antidoping siyosatiga oid normalarni mustahkamlash milliy sport tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish imkonini beradi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari yangi tahrirdagi Qonun jismoniy tarbiya va sport sohasini institutsional jihatdan modernizatsiya qilish zarurligini ko‘rsatdi. Biroq uning samaradorligi qonun normalarini amaliyotga to‘liq joriy etish, moliyaviy resurslarni kuchaytirish, ilmiy tahlillarni kengaytirish va infratuzilmani takomillashtirish bilan uzviy bog‘liq ekani ilmiy jihatdan asoslandi.

Xulosa qilib aytganda, o‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida xulosa qilish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasida yangi tahrirdagi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonun jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Mazkur Qonun aholini, ayniqsa yoshlarni jismoniy faollikka jalb etish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, sport ta’limi sifatini oshirish hamda professional va havaskor sportni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks normativ-huquqiy hujjat sifatida namoyon bo‘ladi. Qonunning mazmunan kengaytirilishi, yangi tushunchalar va huquqiy mexanizmlar bilan boyitilishi sport sohasida institutsional va tizimli boshqaruvni ta’minlash imkonini bermoqda.

Tadqiqot davomida aniqlangan statistik ma’lumotlar hududlarda sport infratuzilmasi va ommaviy sport tadbirlari soni oshib borayotganini ko‘rsatsa-da, Qonun ijrosida muayyan muammolar mavjudligini ham tasdiqladi. Xususan, hududiy dasturlarni ishlab chiqishdagi sustkashlik, sog‘liqni saqlash tizimi bilan sport sohasi o‘rtasidagi hamkorlikning yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganligi, sport infratuzilmasidagi nomutanosibliklar hamda moliyaviy mexanizmlarning to‘liq ishlamasligi Qonun samaradorligini cheklab kelmoqda. Shu bois, mazkur muammolarni bartaraf etish Qonun normalarining amaliy ta’sirini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi aniq takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Avvalo, mahalliy hokimliklar tomonidan jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga qaratilgan hududiy dasturlarni ishlab chiqish va tasdiqlash majburiyati kuchaytirilishi, ushbu dasturlar ijrosini monitoring qilish va baholashning aniq mezonlari belgilanishi lozim. Ikkinchidan, Sog‘liqni saqlash vazirligi va Sport vazirligi o‘rtasida aholi jismoniy rivojlanish holatini muntazam ilmiy tahlil qilish bo‘yicha yagona axborot va tahlil tizimini joriy etish zarur.

Uchinchidan, sport ta’lim muassasalarida trenerlar, tibbiyot xodimlari va mutaxassislarning malakasini oshirish xarajatlarini davlat budjeti yoki maqsadli jamg‘armalar hisobidan moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir. To‘rtinchidan, sport musobaqalariga qatnashish bilan bog‘liq xizmat safari xarajatlarini oldindan moliyalashtirish tizimini joriy etish orqali sportchilar va ularning oilalari zimmasidagi moliyaviy yukni kamaytirish zarur.

Beshinchidan, umumta’lim va professional ta’lim muassasalarida sport infratuzilmasini rivojlantirish

bo‘yicha alohida davlat dasturini ishlab chiqish, sport zallari mavjud bo‘lmagan maktablarda bosqichma-bosqich zamonaviy sport inshootlarini barpo etish talab etiladi. Oltinchidan, para sport, surdlimpiya, maxsus olimpiada va ko‘zi ojizlar sporti yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar va ilmiy-metodik bazani kuchaytirish, ushbu sohalarda malakali kadrlar tayyorlash tizimini kengaytirish zarur.

Yettinchidan, Qonun normalarini keng jamoatchilik orasida targ‘ib qilish maqsadida ommaviy axborot vositalari, ta’lim muassasalari va sport tashkilotlari o‘rtasida uzviy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, huquqiy targ‘ibotning zamonaviy va innovatsion shakllaridan foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, sport sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish va sport musobaqalari natijalariga noqonuniy ta’sir ko‘rsatishning oldini olish bo‘yicha nazorat mexanizmlarini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, yangi tahrirdagi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonun O‘zbekiston Respublikasida sog‘lom jamiyat barpo etish, sport salohiyatini oshirish va xalqaro sport makoniga integratsiyalashuvni jadallashtirishda muhim strategik hujjat hisoblanadi. Uning samaradorligi esa qonun normalarining izchil ijrosi, ilmiy yondashuv asosida takomillashtirilishi va amaliyot bilan uzviy uyg‘unlashuviga bevosita bog‘liqdir.

Adabiyotlar:

1. “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 04.09.2015 yildagi O‘RQ-394-son.
2. “Xalq so‘zi” gazeta. 05.02.2026 sanadagi son.
3. “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonun muhokamasiga doir ellik oltinchi yalpi majlis materiallari // Senat.uz rasmiy sayti.
4. Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risidagi qonunning yangi tahriri tahlili // Olympic.uz axborotnomasi.

Pedagogika fanlari boyicha falsafa doktori (PhD), dotsent
F.Ch. ZIYAYEV[1]
[1]Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Toshkent shahri, O‘zbekiston

https://orcid.org/0009-0008-5813-7022

https://doi.org/10.65149/fansport.2026.v9i3.a031

BOSQON ULOQTIRUVCHILARNING KO‘P YILLIK TAYYORGARLIK JARAYONIDA MURABBIY VA SPORTCHI O‘RTASIDAGI PEDAGOGIK MULOQOTNING O‘RNI

Annotatsiya

В статье анализируется значение педагогического общения тренера и спортсмена в многолетней подготовке толкателей ядра. В исследовании освещается роль эффективного общения в техническом, физическом и психологическом развитии спортсмена, а также влияние стилей тренерской работы. Утверждается, что наличие взаимного доверия, мотивации, эмоциональной поддержки и обратной связи между тренером и спортсменом способствует устойчивому росту спортивных результатов. В статье также анализируются современные подходы к организации педагогического общения, личностно-ориентированные методы и инструменты развития коммуникативной компетентности. Результаты исследования имеют практическое значение для совершенствования системы подготовки толкателей ядра и более эффективной организации педагогической деятельности тренеров.

Ключевые слова: *толкатели ядра, педагогическое общение, тренер, спортсмен, многолетняя подготовка, мотивация, общение.*

Abstract

Ushbu maqolada bosqon uloqtiruvchilarning ko‘p yillik tayyorgarlik jarayonida murabbiy va sportchi o‘rtasidagi pedagogik muloqotning ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda sportchining texnik, jismoniy va psixologik rivojlanishida samarali muloqotning o‘rni hamda murabbiylik uslublarining ta’siri yoritib berilgan. Murabbiy va sportchi o‘rtasida o‘zaro ishonch, motivatsiya, emotsional qo‘llab-quvvatlash va teskari aloqaning mavjudligi sport natijalarining barqaror o‘sishiga xizmat qilishi asoslab beriladi. Shuningdek, maqolada pedagogik muloqotni tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari, shaxsga yo‘naltirilgan metodlar va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish vositalari tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari bosqon uloqtiruvchilar tayyorgarlik tizimini takomillashtirishda, murabbiylarning pedagogik faoliyatini yanada samarali tashkil etishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: *bosqon uloqtiruvchilar, pedagogik muloqot, murabbiy, sportchi, ko‘p yillik tayyorgarlik, motivatsiya, kommunikatsiya.*

This article analyzes the importance of pedagogical communication between coaches and athletes in the long-term training of shot putters. The study highlights the role of effective communication in the technical, physical, and psychological development of athletes, as well as the influence of coaching styles. It is argued that mutual trust, motivation, emotional support, and feedback between coaches and athletes contribute to sustainable improvement in athletic performance. The article also analyzes modern approaches to organizing pedagogical communication, student-centered methods, and tools for developing communicative competence. The results of the study have practical implications for improving the training system for shot putters and for more effectively organizing coaches' pedagogical activities.

Key words: *shot putters, pedagogical communication, coach, athlete, long-term training, motivation, communication.*

Dolzarbligi. Zamonaviy sport tizimida yuqori natijalarga erishish sportchilarning nafaqat jismoniy va texnik tayyorgarligi, balki ularning psixologik holati va murabbiy bilan o‘zaro samarali hamkorligiga ham bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, bosqon uloqtirish kabi murakkab koordinatsion harakatlar, yuqori kuch va aniqlik talab etiladigan sport turlarida sportchining uzoq yillik tayyorgarlik jarayoni tizimli, bosqichma-bosqich va ilmiy asosda tashkil etilishi zarur.

Ko‘p yillik tayyorgarlik jarayonida sportchi shaxsining shakllanishi, uning motivatsiyasi, intizomi va irodaviy sifatlari murabbiy bilan olib boriladigan pedagogik muloqot orqali rivojlanadi. Murabbiy va sportchi o‘rtasidagi o‘zaro muloqot nafaqat mashg‘ulot jarayonini boshqarish vositasi, balki sportchining ichki imkoniyatlarini ochib beruvchi, uning ruhiy barqarorligini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Bugungi kunda sport pedagogikasida murabbiy va